

O'TKIR RESPIRATOR KASALLIKLAR

*Umarova Dilshoda Qodiraliyevna,
Sulaymonova Xosiyat Hamidjonovna,
Xaydaraliyev Nodirbek Dilshodbek o'g'li
Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat
Salomatligi Texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'tkir respirator kasalliklar — viruslar qo'zg'atadigan, kelib chiqishi bir-biriga o'xshash o'tkir infeksiyon kasalliklarning umumiy nomi. Nafas yo'llari (burun, hiqildoq, kekirdak, bronxlar) shilliq pardalari, ko'z shilliq pardasi — kon'yunktivaga zarar yetishi bilan kechadi.

Key words: O'RVI, Gripp, Adenoviruslar, Intoksikatsiya

Gripp va yuqori nafas yo'llarining boshqa o'tkir respirator kasalliklari profilaktikasi

O'tkir respirator kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga adenoviruslar, paragripp viruslari, rinoviruslar va boshqalar kiradi. O'tkir respirator kasalliklarning ayrim (sporadik) guruhlari ko'proq kuzatiladi, lekin ular aholining butun bir guruhini ham qamrab olishi mumkin. Har qanday virusli infeksiya bemordan havotomchi (gaplashganda, aksirganda, yo'talganda) yo'li orqali yuqadi. Kasallik qo'zg'atuvchi viruslar yuqori nafas yo'llariga (burun, hiqildoqqa) tushadi, shilliq parda (epiteliy)ning tashqi qavatidagi hujayralarga kirib, ularni yemiradi, bunda qo'zg'atuvchilarning bir qismi nobud bo'lib, zaharli modda (endotoksin) ajratadi va organizmni zaharlaydi (intoksikatsiya). Virus saqlovchi po'rsildoq hujayralar ko'chib tushadi va bemor gaplashganda, yo'talganda, aksa urganda tupuk, burun shillig'i va balg'am bilan havoga tushib, atrofdagilarga yuqadi. Kasallik uy anjomlari (idishtovoq, sochiq, o'yinchoqlar va h.k.)dan ham yuqishi mumkin. O'tkir respirator kasalliklarni shartli ravishda mavsumiy kasalliklar deb atash mumkin, chunki bu guruh kasalliklar kech kuz va qishda ko'proq kuzatiladi.

Adenovirus kasalliklarga adenoviruslar sabab bo'lib, ular antibiotiklar ta'siriga chidamli, past trada uzoq saqlanadi. Ultrabinafsha nurlar, formalin va fenolning 5% li eritmasi ta'sirida nobud bo'ladi. Organizmga kirgan adenoviruslar 3— 14 kun davomida (o'rtacha 5—7 kun) kasallik belgilarini paydo qilmaydi. Odatda, u asta-sekin boshlanadi, bemorning ahvoli yomonlashadi, intoksikatsiya belgilari paydo bo'ladi, isitma ko'tariladi, darmonsizlik, bo'shashish, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, ba'zan qusish alomatlari ro'y beradi. Kasallik grippga o'xshab birdan boshlanishi ham mumkin. Qator hollarda isitma ko'tarilishi bilan birga, odatda, uzoq muddatli tumov paydo bo'ladi, qovoqlar qizaradi, ko'zdan yosh oqadi, yutinganda tomoqda og'riq seziladi. Boshqa hollarda azob beradigan quruq yo'tal, tovushning bo'g'ilib qolishi,

havo yetishmasligi quzatiladi (qarang [Bo'g'ma](#)). Ba'zan me'daichak faoliyati buziladi (tez-tez suvdek ich ketadi). Bemorni uyda boshqalardan ajratib qo'yiladi. Albatta vrach chaqirish va uning buyurganlarini qat'iy bajarish lozim.

Paragripp kasalliklarni paragripp viruslari qo'zg'atadi, ular 1—3 kundan keyin xona haroratida o'z faolligini yo'qotadi, lekin 4° trada yaxshi saqlanadi. Kasallikning inkubatsion davri 1—6 kun. Kasallik darmonsizlik, bir oz tumov va yo'tal bilan boshlanadi: gavda temperaturasi sal ko'tariladi, tovush bo'g'ilib qoladi, tomoq achishib, bemor quvquv yo'taladi. 1—3 yashar bolalarda shilliq parda shishishi sababli hiqildoq torayadi (stenoz), bunda nafas olish to'satdan qiyinlashadi. Bemor uy sharoitida vrach nazoratida davolanadi. Chaqaloqlarda va bir yashar bolalarda o'pkaning yallig'lanishi (zotiljam), o'rta quloqning yallig'lanishi (qarang [Otit](#)) kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda bolalar kasalxonada davolanadi.

Rinovirus kasalliklarni rinoviruslar (burun viruslari) qo'zg'atadi. Kasalliklar kamdankam hollarda yil bo'yi uchrab turadi, epidemiyalar bo'lmaydi. [Inkubatsion davri](#) 2—3 kun. Darmonsizlik, gavda trasining bir oz ko'tarilishi, bosh og'rishi, burundan yiring aralash shilimshiq (sariqyashil rangli) kelishi, tumov, yo'tal kuzatiladi. Chaqaloq va go'daklar bu kasallikka beriluvchan bo'ladi, kasallik ularda og'ir o'tadi va turli asoratlar qolishi mumkin.

Respirator — sinsitial virusli kasallikni sinsitial virus keltirib chiqaradi, u xona haroratida tez halok bo'ladi. Gavda temperaturasi 38— 39° gacha ko'tariladi, yo'tal, tumov paydo bo'ladi. Bronxit bo'lishi mumkin. 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'pincha og'ir zotiljam kuzatiladi, bunda bolalar kasalxonada davolanadi.

O'tkir respirator kasalliklark. bilan og'rigan bemorni uyda davolaganda alohida xonaga yotqiziladi. Bemorni parvarish qilayotgan oila a'zolari og'izburniga doka niqob taqib yurishlari kerak. Kasal yotgan xonani tez-tez shamollatib, ko'rpayostiq jildi, choyshabni muntazam almashtirib turish zarur. Bemorning harorati ko'tarilgudek bo'lsa, uni yaxshilab o'rabchirmab, limon, malina solingan issiq choy berish, iloji boricha ko'proq suyuqlik (choy, mors, kompot, sharbat va h.k.) ichirish lozim. Ovqat yengil hazm bo'ladigan va oqsilga boy (bulonlar, go'shtli va baliqdan qilingan kotletlar, tvorog, sabzavotlar, ho'l mevalar) bo'lishi zarur. Bemor uchun alohida idishtovoq tutish lozim. U yotgan xonani va mebelni kuniga ikki mahal nam latta bilan artib turiladi.

Gripp o'tkir yukumli virusli kasallik bo'lib yuqori nafas yo'llarini zaharlanishi bilan harakterlanadi.

Gripp kasalligiga mavsumiylik xos, asosan kuz-qish-bahor oylariga to'g'ri keladi. Ushbu mavsumlarda kasallikning ortishiga havo haroratining pasayishi, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarining ko'pligi, organizmdagi vitaminlar tanqisligi, xonalardagi odamlar zich yashashi sabab bo'ladi.

Gripp viruslarni tarqatuvchi asosiy manbai gripp bilan kasallangan bemor odam bo'lib, u kasallikning 2-3 kunlarida atrofidagilar uchun juda xafli bo'ladi. Kasallik

ko'pincha xavo-tomchi yo'li bilan yuqadi. Bemor aksa urganda, yo'talganda, gaplashganda so'lak tomchilari bilan gripp viruslarini atrof-muxitga tarqatadi.

Gripp bilan barcha yoshdagi kishilar kasallanadi, ayniqsa zaif (nimjon) bolalar, keksa yoshdagi kishilar, homladorlik hamda surunkali xastaliklari bo'lgan hamda tamaki chekuvchi shaxslarga tez yuqadi va ularda og'rib o'tib, ko'pgina og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin.

Kasallik et uvishishi, tana haroratining (39-40 °S gacha) ko'tarilishi, bosh og'rig'i, mushaklardagi og'riqlar bilan boshlanadi. Keyinchalik tanglay murtaklarni qizarishi, bosh aylanishi, ishtahasizlik, burun bitishi, og'riqli yo'tal kuzatiladi. Bu holat 2-7 kungacha davom etib, davo muolajalari hamda yaxshi parvarish qilinsa, bemor o'zini yaxshi his qila boshlaydi.

Xalq orasida grippning o'zi emas, balki uning asorati yomon degan fikr bejiz aytilmagan. Ba'zilar gripp kasalligiga e'tiborsizlik bilan qaraydilar, ya'ni oyoqda yurib o'tkazadilar yoki o'z bilganicha noto'g'ri davo muolajalarini qiladilar. Bunday holatlarda kasallikning asoratlanishi:

- O'pka to'qimalarni yallig'lanishi (Zotiljam),
- Miya pardasining yallig'lanishi (Meningit),
- Miya pardasini va moddasining yallig'lanishi (Meningoensefalit),
- Quloqning yallig'lanishi (Otit),
- Burun yondosh bo'shliqlarning yallig'lanishi (Sinusit) kabi og'ir asoratlar kuzatiladi.

Kasallikni oldini olish choralari:

- Uyushgan jamoalarda (maktab, konsert zallari, ish joylari, kinoteatrlar, umumiy transport vositalari) 4 qavatli dokadan tikilgan niqobda yurish tavsiya qilinadi. Yashash xonalarini vaqti-vaqti bilan shamollatib, isiriq tutatib turish kerak bo'ladi;
- Ko'proq ochiq havoda sayr qilish;
- Gripp qarshi vaksina bilan emlash,
- Gripp kasalligiga qabul qilinadigan davo muolajalari faqat shifokor tavsiyasiga ko'ra bo'lishi kerak,
- Oilada biror kishida gripp kasalligiga shub'ha bo'lganda uni ishga, maktabga, maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga, jamoat joylarga yubormaslik. Bemorni atrofdegilardan aloxidalash,
- Yashash xonalari vaqti-vaqti bilan shamollatish, isiriq tutatish tavsiya etiladi,
- Har bir shaxs kun tartibiga rioya qilish, harakatli mashqlar, tanati quyoshda toblash, suv muolajalari bilan tanani muntazam ravishda chiniqtirish,
- Meva va sabzavotlardan vaqtida ko'proq-ko'proq iste'mol qilib turish,
- Mavsumga mos kiyinish,
- Gripp kasalligi bilan kasallangan bemorlarga va sog'lom insonlarga suyuqliklar (malina, smarodina, limon va asal qo'shilgan choy, issiq sut, na'matak damlamasi ichish tavsiya etiladi.

Kundalik turmushda yuqorida aytib o‘tilgan tavsiyalarga amal qilinsa, har birimiz gripp kasalligini oldini olishda o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz va uzimizni hamda atrofdagi hamyurtlarimizni gripp hamda yuqori nafas yo‘llarining o‘tkir respirator xastaliklaridan asragan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Yuqumlikasalliklar A. Zakirxodjayev

Virusli infeksiyalar A. B. Abidov

Internet ma’lumotlari:

www.ziyonet.uz

www.google.uz